

O‘ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATI TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Umarov Murodjon Mamatkarim o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

murodbekumarov0512@gmail.com

+998946745040

Soloxiddinova E‘zoxon Nodirbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21044600>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati institutining mazmun-mohiyati, uning nazariy va huquqiy asoslari hamda amaldagi qonunchilik tizimidagi o‘rni tahlil etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni normalari asosida jamoatchilik nazoratining shakllari, subyektlari va amalga oshirish mexanizmlari, uni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar, fuqarolarning huquqiy faolligi yetarli, davlat organlari faoliyatida ochiqlik darajasi hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligi hamda kamchiliklari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, ochiqlik, shaffoflik, huquqiy mexanizm, nazorat shakllari, demokratik islohotlar, raqamli platformalar, ma‘muriy javobgarlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируется сущность института общественного контроля в Узбекистане, его теоретические и правовые основы, а также его место в действующей законодательной системе. В*

частности, на основе норм Конституции Республики Узбекистан и Закона Республики Узбекистан “Об общественном контроле” анализируются формы, субъекты и механизмы общественного контроля, проблемы, возникающие при его осуществлении, адекватность правовой деятельности граждан, уровень открытости в деятельности государственных органов, а также эффективность и недостатки механизмов контроля.

Ключевые слова: общественный контроль, гражданское общество, государственное управление, открытость, прозрачность, правовой механизм, формы контроля, демократические реформы, цифровые платформы, административная ответственность.

Abstract: This article analyzes the essence of the institution of public control in Uzbekistan, its theoretical and legal foundations, and its place in the current legislative system. In particular, based on the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law of the Republic of Uzbekistan “On Public Control”, the forms, subjects, and mechanisms of public control, the problems arising in its implementation, the adequacy of legal activity of citizens, the level of openness in the activities of state bodies, and the effectiveness and shortcomings of control mechanisms are analyzed.

Keywords: public control, civil society, public administration, openness, transparency, legal mechanism, forms of control, democratic reforms, digital platforms, administrative liability.

Kirish:

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi ochiqligini ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati eng muhim preventiv vositalardan biriga aylandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi mustahkamlangani bu sohaning nazariy va huquqiy poydevori

hisoblanadi³³. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda jamoatchilik nazorati nafaqat huquq, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi “tiyilish va muvozanat” mexanizmining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu jarayon davlat hokimiyati organlari faoliyatining xalqchilligini ta’minlashga xizmat qiladi³⁴.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun ushbu institutning subyektlari (NHTlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, OAV) va amaliy shakllarini (jamoatchilik eshituvi, monitoring, ekspertiza) aniq belgilab berdi³⁵.

So‘nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar, jumladan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish va davlat boshqaruviga “Jamoatchilik auditi” tizimini keng joriy etishni talab qilmoqda³⁶.

Inson va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari raqamlashishi natijasida amalga oshirilayotgan islohotlarda inson omilini kamaytirishga erishilmoqda. Birgina elektron hukumat platformasining ishga tushirilishi sohada tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga yangi soha elektron hokimiyat tizimi yuzaga keldi.

Barcha davlat xizmatlari bevosita onlayn ko‘rsatilishi belgilandi. Elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatayotgan davlat organlari o‘z faoliyatida bir qator prinsiplarga amal qilishi bir qator qonun hujjatlarida belgilab qo‘yildi. Masalan, davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va shaffofligi, elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi, “bir darcha” prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish, davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish, elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish,

³³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/-6445145>

³⁴ Saidov A. X. Konstitutsiyaviy islohotlar va jamoatchilik nazorati: nazariya va amaliyot // Huquq va burch jurnali. – Toshkent, 2023. № 4. 12-18-betlar.

³⁵ “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018-yildagi O‘RQ-474-son. <https://lex.uz/docs/-3679092>.

³⁶ “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda PF-158-son Farmoni. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy.

elektron hukumat axborot tizimlarining va axborot resurslarining axborot xavfsizligini hamda kiberxavfsizligini ta’minlash kabi prinsiplar belgilandi³⁷.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Fuqarolik jamiyati darsliklarida ta’kidlanganidek, jamoatchilik nazorati faqatgina kamchiliklarni aniqlash emas, balki davlat organlari faoliyatini samarali tashkil etishda ko‘maklashishdir³⁸. Bugungi kunda mahalla tizimi jamoatchilik nazoratining “tayanch bo‘g‘ini”ga aylantirilmoqda, bu esa nazorat mexanizmlarining markazdan quyi bo‘g‘inga ko‘chishini ta’minlaydi. Ilmiy maqolalar va zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sohadagi mavjud mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir³⁹. Xususan, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda raqamli nazorat va sun’iy intellektning o‘rni”, “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining rolini kuchaytirish” nomli maqolalarda jamoatchilik naorati masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shun bilan birga ushbu qonunchilikda jamoatchilik ekspertizasi majburiyligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi; muhim ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy tartibda jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish tizimini tubdan kuchaytirish lozim. Bunga qo‘shimcha sifatida ishga qabul qilinayotgan xodim bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasini hududiy adliya bo‘limlari hamda yurudik markazlardan o‘tkazish ham misol bo‘ladi. Shuningdek, jarayonlarni raqamlashtirish orqali davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlash, xususan, “Open Budget” (Ochiq budjet) platformasining muvaffaqiyatli tajribasini ekologik nazorat va qurilish sohalariga ham keng tatbiq etish zarur. Bunday raqamli platformalar sohadagi shaffoflikni

³⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2015 yil. –T.: <https://lex.uz/docs/-2833860>

³⁸ Fuqarolik jamiyati: darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. 320-bet.

³⁹ Toshqulov J. Raqamli davrda jamoatchilik nazorati: muammo va yechimlar // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2024. № 2. 45-51-betlar.

oshiradi hamda fuqarolarning bevosita nazorat o‘rnatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jamiyat manfaatlari doirasidagi masalalar yuzasidan esa (www.meningfikrim.uz) mening fikrim jamoaviy murojaatlar portali ishga tushirilgan bo‘lib, jamiyat a‘zolari byudjet va iqtisodiyot, qonunchilik, mehnat, xavfsizlik, turizm, savdo, yer va suv masalalari hamda boshqa masalalar yuzasidan murojaatlar yo‘llashi mumkin. Statistik ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, Ushbu portalda e’lon qilingan masalalar yuzasidan 32066 ta izoh berilgan. Ushbu izohlar muhokama uchun qo‘yilgan masalalar yuzasidan bo‘lib, qo‘llab-quvvatlash jarayonida 41 ta, ekspertiza jarayonida 116 ta hamda barcha jamoaviy izohlar esa 8292 tani tashkil etishi belgilangan⁴⁰. Jamoatchilik nazorati subyektlarining samaradorligini ta’minlashda ularning iqtisodiy va resurs ta’minoti masalasi fundamental ahamiyatga ega.

Nazorat qiluvchi subyektning nazorat qilinuvchi davlat organiga moliyaviy jihatdan qaram bo‘lishi manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradi va jarayonning xolisligiga putur yetkazadi⁴¹. Shu sababli, davlat grantlari hamda ijtimoiy buyurtmalar tizimini raqobatli va ochiq shaklga o‘tkazish orqali nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash zarur. Moliyaviy ta’minot bilan bir qatorda, jamoatchilik kengashlarining davlat organlaridan to‘liq mustaqilligini ta’minlash, ularning faoliyatiga ma’muriy bosimlarni cheklash va tarkibiga mustaqil ekspertlarni ko‘proq jalb qilish professional natijadorlikni kafolatlaydi⁴².

Zamonaviy texnologik tendensiyalar sharoitida jamoatchilik nazoratini an’anaviy usullardan “Aqlli nazorat” (Smart Control) va raqamli boshqaruv (Digital Governance) modeliga o‘tkazish talab etiladi. Bunda Big Data (katta

⁴⁰ Mening fikrim. Jamoaviy murojaatlar portali ma’lumotlari.
<https://petition.gov.uz/uz#:~:text=%D0%A1%D1%82%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0,%D0%98%D0%B7%D0%BE%D2%B3%D0%BB%D0%B0%D1%80>

⁴¹ Davlat va huquq nazariyasi: darslik / H. R. Boboyev va boshq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. 410-bet.

⁴² Ibragimov N. Jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari // Demokratizatsiya va inson huquqlari. – Toshkent, 2023. № 1. 28-34-betlar.

ma’lumotlar) va Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari jamoatchilik nazoratining asosiy vositasi bo’lishi kerak. Xususan, davlat xaridlari yoki budget mablag’larining sarflanishini inson omilisiz, maxsus algoritmlar yordamida monitoring qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avtomatik ravishda aniqlaydigan “Qizil bayroqchalar” (Red Flags) tizimini joriy etish shubhali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. Budget mablag’larining harakatini kuzatishda blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini qo’llash esa jamoatchilik nazoratini faqat natijani tekshirishdan, jarayonni bevosita va onlayn kuzatishga aylantiradi.

Jamoatchilik nazoratining huquqiy maqomini mustahkamlashda nazorat jarayoniga to’sqinlik qilganlik uchun javobgarlik masalasi hal qiluvchi bo’g’indir. Hozirgi kunda jamoatchilik nazorati subyektlarining qonuniy faoliyatiga qarshilik ko’rsatganlik yoki ularning so’rovlarini e’tiborsiz qoldirganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralarining yetarlicha belgilanmagani ushbu institutning ko’p hollarda deklarativ xarakterda qolib ketishiga sabab bo’lmoqda⁴³. Ilmiy asoslangan yondashuvga ko’ra, har qanday huquqiy norma sanksiya bilan mustahkamlanmas ekan, u amaliyotda “o’lik norma”ga aylanadi. Shu bois, Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksga jamoatchilik nazorati subyektlarining so’rovini qasddan e’tiborsiz qoldirganlik, ma’lumotlarni asossiz rad etganlik yoki noto’g’ri ma’lumot berganlik uchun alohida sanksiyalarni nazarda tutuvchi yangi modda kiritish zarurati dolzarbdir⁴⁴.

XULOSA.

O’zbekistonda jamoatchilik nazorati to’g’risidagi qonunchilikni takomillashtirish - mamlakatda demokratik boshqaruv tamoyillarini qaror toptirish va “inson qadri” ustuvorligini ta’minlashning asosiy shartidir. Jamoatchilik nazorati subyektlarining huquqiy maqomini aniq belgilash, ularning moliyaviy-

⁴³ Ma’muriy huquq: darslik / Mas’ul muharrir: L. B. Xvan. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022. 350-bet.

⁴⁴ O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2024-yil.
<https://lex.uz/ru/docs/-97664>

resurs mustaqilligini kafolatlash hamda “Big Data” va “Blockchain” texnologiyalarini jarayonga integratsiya qilish tizim samaradorligini oshiruvchi ustuvor omillardir. Ma’muriy javobgarlikning belgilanishi mansabdor shaxslarning jamoatchilik so‘rovlariga nisbatan mas’uliyatini oshiradi. Kelgusida ushbu sohadagi tarqoq normalarni tizimlashtiruvchi va yaxlitlovchi alohida Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi kodeksni ishlab chiqish va qabul qilish Yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES).

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y.,03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018-yildagi O‘RQ-474-son. <https://lex.uz/docs/-3679092>
3. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2024-yil. <https://lex.uz/ru/docs/-97664>
5. Talapov, B. A. (2019). Electronic democracy in uzbekistan: development and problems. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 135-141.
6. Б.А.Талапов., Э.О.Ғаппаров. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари фаолиятини демократлаштириш жараёнлари. НамДУ илмий ахборотномаси. 2019. Vol.1: Iss.2, Article 180. <https://core.ac.uk/download/pdf/285998419.pdf>
7. Ғаппаров, Э. О. (2019). Innovation, social innovation and innovation activity: scientific and theoretical approaches. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 152.

8. Talapov, B., & Gapparov, E. (2019). The process of democratizing local community in the government. Scientific bulletin of Namangan state university, 1(2), 177-181.

9. Gapparov, E. O. (2020). Social innovation as a motivating, developing factor in society. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(8), 331-333.

10. Abdullayev A.N., Umarov M.M. Jamoatchilik nazorati: tarix va bugun. Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy 10-sonli online konferensiya. 2022-y

11. Umarov M.M. Public control - a sign of a democratic state. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. 11, 2022-y.

12. Umarov M.M. The role of the media in the implementation of public control. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. 11, 2022-y

13. Saidov A. X. Konstitutsiyaviy islohotlar va jamoatchilik nazorati: nazariya va amaliyot // Huquq va burch jurnali. – Toshkent, 2023. № 4. 12-18-betlar.

¹⁴. Ibragimov N. Jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari // Demokratizatsiya va inson huquqlari. –Toshkent, 2023. № 1. 28-34-betlar.

15. Umarov, M. M. o‘g‘li . (2023). O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishi. Innovative Development in Educational Activities, 2(24), 358–362. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10445349>.

16. Umarov, M. M. o‘g‘li ., & Xabibullayeva, M. A. qizi . (2024). O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining rolini kuchaytirish. Innovative development in educational activities, 3(13), 104–108. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14604102>

17. Toshqulov J. Raqamli davrda jamoatchilik nazorati: muammo va yechimlar // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2024. № 2. 45-51-betlar.
18. Umarov, M. M. o‘g‘li., & Qosimov, R. A. o‘g‘li . (2025). Xalqaro va milliy qonunchilikda inson huquq va erkinliklarini e’tirof etilishi. Innovative development in educational activities, 4(2), 44–50.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15034886>
19. Karimov Sherzod Abdumalik o'g'li, & Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li. (2025). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevori [Data set]. In Latin American Journal of Education (Vol. 5, Number 07, pp. 532–539). Zenodo.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17978124>
- ²⁰. Fuqarolik jamiyati: darslik / Mualliflar jamoasi. –Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. 320-bet.
- ²¹. Davlat va huquq nazariyasi: darslik / H. R. Boboyev va boshq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. 410-bet.
- ²². Ma’muriy huquq: darslik / Mas’ul muharrir: L. B. Xvan. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022. 350-bet.